



EFFECTIVENESS OF USING THE BAAMBOOZLE PLATFORM IN PRIMARY EDUCATION

Atyeva Bahrinisa Abduvakhidovna

Senior Teacher, Department of Exact, Natural Sciences, Preschool, Primary and Special Education Methods Syrdarya Regional Pedagogical Skills Center

Atayevabakhrinisa68@gmail.com 97 245 68 06

Abstract

The article discusses the importance of using digital technologies in modern education, the role of games and assignments based on the Baamboozle platform in increasing the effectiveness of lessons, guiding children toward creative and critical thinking, as well as developing collaboration and communication skills. It also presents examples of creating various tasks using the Baamboozle platform in primary school lessons.

Keywords: Primary education, Baamboozle, digital technologies, competencies, natural sciences, mathematics, native language.

Introduction

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA BAAMBOOZLE PLATFORMASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Atyeva Baxrinisa Abduvaxidovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Aniq, tabiiy fanlar, maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrasida katta o‘qituvchisi

Atayevabaxrinisa68@gmail.com 97 245 68 06

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanish ahamiyati, baamboozle platformasi asosidagi o‘yinlar, topshiriqlarning dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni, bolalarni kreativ, kritik fikrlashga yo‘naltirish, kollabarotsiya va kommunikativlik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi jihatlari, boshlang‘ich ta‘lim darslarida baamboozle platformadan foydalangan holda topshiriqlar yaratish namunalari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: boshlangʻich taʼlim, baamboozle, raqamli texnologiyalar, kompetensiyalar, tabiiy fanlar, matematika, ona tili.

Аннотация

В статье раскрывается значение использования цифровых технологий в современном образовании, роль игр и заданий на основе платформы Ваamboozle в повышении эффективности уроков, развитии у детей креативного и критического мышления, а также формировании навыков коллаборации и коммуникации. Приводятся примеры создания заданий с использованием платформы Ваamboozle на уроках начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, Ваamboozle, цифровые технологии, компетенции, естественные науки, математика, родной язык.

KIRISH

Sunʼiy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qoʻllash, raqamli maʼlumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini taʼminlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sunʼiy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4996-son qarori qabul qilindi. Bugungi kunda taʼlim tizimini raqamli texnologiya asosida tashkil etish oʻquv jarayonini samarali tashkil etish, oʻquvchilarning bilim olishga boʻlgan motivatsiyasini oshirish hamda ularning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Raqamli pedagogika konsepsiyasi oʻquvchilarning nafaqat bilim olish, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoni hal etish kabi yuqori darajadagi aqliy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hayotiy kompetensiyalar tarkibiga eʼtibor, xotira, tafakkur, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish kabi muhim psixik jarayonlar kiradi. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron platformalarda yaratilgan topshiriqlar muhim oʻrin tutadi. Chunki topshiriqlar oʻquvchilarni eng qiziqarli jarayonlarda ishlashga undaydi, ularni faolligi oshiradi kreativ, kritik, mantiqan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Zamonaviy raqamli platformalar orqali tashkil etilayotgan topshiriqlar anʼanaviy metodlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega boʻlib, oʻquv jarayonini qiziqarli shaklda tashkil etish imkonini beradi. Shu bois

mazkur maqolada raqamli platformalardan biri bo'lgan bamboozle platformasida topshiriqlar bajarish asosida o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bamboozle — bu o'qituvchilar va ta'lim beruvchilar uchun dars jarayonini qiziqarli, interaktiv va o'yin tarzida tashkil etishga mo'ljallangan platforma. U ayniqsa darslarida, bilim darajasini tekshirish va dars boshida o'quvchilarni faollashtirish uchun juda qulay hisoblanadi.

Bamboozle — bu o'qituvchilar va ta'lim beruvchilar uchun mo'ljallangan, sinfda o'yin shaklida bilim berishga yordam beradigan ommabop onlayn platforma. U ta'lim, ish, ma'lumot tarqatish va tezkor muloqot uchun foydali bo'lib, 3 milliondan ortiq o'qituvchilar tomonidan yaratilgan tayyor o'yinlar bazasiga ega. Bamboozle – o'yinlarni yaratishga qulay va oson bo'lgan platforma. Mavzu bo'yicha tayyor o'yinlar ham topish mumkin. jamoaviy va yakka tartibda o'yinlar mavjud.

Afzalliklari:

O'quvchilarning e'tiborini tortadi va motivatsiyani oshiradi

Darsning boshlanishi, o'rtasi va oxiri uchu mos keladi.

Har qanday yosh bilim darajasiga oid o'yinlar mavzjud

Bu platformadan foydalanishda quyidagi o'yin turlaridan ham foydalanish imkoniyati mavjud:

Tayyor o'yinlar: Boshqa foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan minglab tayyor o'yinlardan foydalanish mumkin.

Jamoaviy o'yin: O'quvchilarni jamoalarga bo'lib, musobaqa tarzida o'tkazish mumkin.

Oddiylik: Ro'yxatdan o'tmasdan ham o'yinlarni ochish va boshlash imkoniyati mavjud

Asosiy xususiyatlari:

Bitta ekran: O'yinni faqat bitta kompyuter yoki proyektor orqali butun sinf bilan o'ynash mumkin, o'quvchilardan alohida qurilmalar talab qilinmaydi.


Tayyor va bepul o'yinlar: Platformada turli mavzularda 3 milliondan ortiq tayyor o'yinlar mavjud.

O'z o'yinini yaratish: Foydalanuvchilar o'zlarining dars mavzulariga mos viktorinalar va o'yinlar yaratishlari mumkin.



Qiziqarli format: Ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil etishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda baamboozle yordamida darslarni yanada qiziqarliroq qilish uchun yaratilgan o'yin namunalrini ko'rib o'tamiz:



Tabiiy fanlar darslarida o'tilgan mavzu "Yil fasllari" mavzusi uchun refleksiya topshiriqlari:



Ona tili darslarida "Yonma yon kelgan undoshlar" mavzuga oid tayyorlangan topshiriqlar ham o'quvchilar olgan bilimlarni mustahkamlashga hayotga bog'lashga yo'naltiradi, imloviy savodxonligini oshiradi.



Matematika darslarida “Sonni 10, 100, 1000ga koʻpaytirish va boʻlish” mavzusiga oid tayyorlangan topshiriqlar ham oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga adi, kollaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash, kommunikativlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.



Yutuqli yoki jarimali vaziyatlar ham o‘quvchilarni yanada topshiriqlar ustida ishlash jarayonlarini jonlantirib boradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, boshlang‘ich sinflarda baamboozle platformasidan foydalanish asosida tashkil etish zamon talabidir.

Baamboozle - bu o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan, darslarni qiziqarli viktorinalar va o‘yinlar orqali o‘tishga yordam beradigan onlayn platforma ekanligini ko‘rib o‘tdik. U jamoaviy o‘yinlar uchun juda qulay bo‘lib, ro‘yxatdan o‘tmasdan ham tayyor o‘yinlardan foydalanish, shuningdek, o‘z o‘yinlaringizni yaratish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biri – o‘quv jarayonini raqamli texnologiyalar bilan boyitish, o‘quvchilarning faolligini oshirish va darslarni qiziqarli hamda samarali o‘tkazishdan iborat. Baamboozle elektron platformasi yordamida mavzuni o‘quvchilarga interaktiv, o‘yin shaklida yetkazish orqali ularning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, nutqiy faolligini rivojlantirish va dars motivatsiyasini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son qarori.
2. Toirova M.E. Ona tili Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. Toshkent. “Novda Edutainment”, 2023.
3. Tigay O.E. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Tabiiy fanlar. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.
4. Repyova I.V. Matematika. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Matematika Toshkent. “Novda Edutainment”, 2023.
5. [www. bamboozle.com](http://www.bamboozle.com).